

Farg'ona viloyatida demografik holat

2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-aprel holatiga Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni **4 162,3** ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **2,0** foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni **22,4** ming nafarni, vafot etganlar **4,4** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **18,0** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga ko'chib kelganlar soni **3 542** kishini va viloyatimizdan ko'chib ketganlar soni **3 962** kishini, qayd etilgan nikohlar **3,8** mingtani, nikohdan ajralishlar **1,2** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni

4 162,3 *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

22,4 *ming kishi*

Vafot etganlar soni

4,4 *ming kishi*

Ko'chib kelganlar

3 542 *kishi*

Ko'chib ketganlar

3 962 *kishi*

Nikohlar soni

3,8 *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

1,2 *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni


Farg'ona viloyatida doimiy aholi soni 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra **4 162,3** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **82,8** ming kishiga yoki **2,0** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **2 363,5** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **56,8%**), qishloq joylarda esa **1 798,8** ming kishi (**43,2%**) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **2 061,5** ming kishini (**49,5%**), erkaklar esa **2 100,8** ming kishini (**50,5%**) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	4 079,5	4 162,3	102,0
Farg'ona shahri	323,3	330,0	102,1
Qo'qon shahri	309,5	315,0	101,8
Quvasoy shahri	101,6	103,6	102,0
Marg'ilon shahri	254,4	258,8	101,7
tumanlar:			
Oltiariq	229,5	234,0	102,0
Qo'shtepa	209,3	214,4	102,4
Bag'dod	234,1	239,2	102,2
Buvayda	248,3	254,0	102,3
Beshariq	243,6	248,0	101,8
Quva	276,8	281,7	101,8
Uchko'prik	242,7	248,2	102,3
Rishton	217,8	222,1	102,0
So'x	84,2	86,5	102,7
Toshloq	218,6	222,9	102,0
O'zbekiston	237,3	242,1	102,0
Farg'ona t.	222,6	227,0	102,0
Dang'ara	178,0	181,9	102,2
Furqat	127,7	130,3	102,0
Yozyovon	120,2	122,6	102,0

Farg'ona viloyatida 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **615,8** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **12,2** kishiga ortgan (2024-yil 1-aprel holatiga 1 kv km **603,6** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv km ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Farg'ona viloyatida 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **22,4** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **21,9** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,5** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **4,4** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,3** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,2** ming nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **22,4** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **11,5** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,3%**), qiz bolalar soni **10,9** ming kishini (**48,7%**) va shahar joylarida **11,9** ming kishini (**53,1%**), qishloq joylarida **10,5** ming kishini (**46,9%**) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **4,4** ming kishini, shundan erkaklar **2,5** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **56,8%**), ayollar **1,9** ming kishini (**43,2%**) va shahar joylarida **2,3** ming kishini (**52,3%**), qishloq joylarida **2,1** ming kishini (**47,7%**) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Farg'ona viloyatida 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni **3,8** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **3,7** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,3** ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **1,2** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan o'zgarmagan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **3,8** ming birlikni, shundan shahar joylarida **2,0** ming birlikni (**52,6%**), qishloq joylarida **1,8** ming birlikni (**47,4%**) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **1,2** ming birlikni, shundan shahar joylarida **0,8** ming birlikni (**66,7%**), qishloq joylarida **0,4** ming birlikni (**33,3%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **3 542** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **3 542** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar aniqlanmagan.

Ko'chib ketganlar jami soni **3 962** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **3 954** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **8** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Farg'ona viloyati	3 542	3 542	-	3 962	3 962	8
Farg'ona shahri	1 082	1 082	-	613	613	3
Qo'qon shahri	577	577	-	474	474	2
Quvasoy shahri	122	122	-	123	123	-
Marg'ilon shahri	220	220	-	421	421	1
<i>tumanlar:</i>			-			
Oltiariq	47	47	-	153	153	-
Qo'shtepa	200	200	-	186	186	-
Bag'dod	39	39	-	128	128	-
Buvayda	32	32	-	117	117	-
Beshariq	65	65	-	179	179	-
Quva	105	105	-	211	211	2
Uchko'prik	96	96	-	141	141	-
Rishton	88	88	-	137	137	-
So'x	151	151	-	44	44	-
Toshloq	121	121	-	167	167	-
O'zbekiston	112	112	-	295	295	-
Farg'ona t.	206	206	-	235	235	-
Dang'ara	144	144	-	175	175	-
Furqat	88	88	-	98	98	-
Yozyovon	47	47	-	65	65	-

Viloyatga ko'chib kelganlar va viloyatdan ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fugarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
X. Mutalipov
73 241-97-74 (4070)

Manzil:



